



2024



№ 5

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy,
innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid
ilmiy-amaliy jurnal



- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menajment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Muhandislik va Iqtisodiyot

*Elektron nashr,
597 sahifa, dekabr, 2024-yil.*

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Norboev Odil Abraevich, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası dosenti

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Muhandislik va Iqtisodiyot

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlash jarayonlarini iqtisodiy-matematik modellash	19
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	
Yangi o'zbekistonda turmush tarzining shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi o'ri	27
Axunov Muhammadamin Abduvasitovich	
Radiolokatsion uzatmalar yordamida gaz ballonli avtomobillar texnik ekspluatatsiyasini nazorat qilish	32
Mirzayev Bahodir Nuriddinovich, Zulfiqorova Guldona Akbarjon qizi	
Moliya tizimini barqarorlashtirishning ustuvor yo'nalishlari	37
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
Quyosh elektronikasida polikristallarning qo'llanilishi	42
Xoliqov Alimardon Sultonovich	
Статистический анализ производства плодоовощественной продукции в Республике Узбекистан	48
Анорбоева Бахтижамол Данияр кизи	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyatida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari	57
Yuldoshev Sobir Fayzullaevich	
Raqamlashtirish va sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini statistik tahlil qilish	63
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
Пути развития фондового рынка на основе цифровых технологий	70
Шукурова Луиза Баратовна, Эшдавлатов Боймурод Соатович	
Mathematical model and analytical solutions of the process of physics-chemical hydrodynamics	76
Ismanova Klara Dulanbaevna	
Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish jaryonlarining ekonometrik va statistik tahlili	84
Jo'rayev Olim Albayevich	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni o'ri	91
Mardanaqulov To'liqin	
Studying the calculation process of gear geometry transmission in C++ and excel programs	95
Uzoqov Farxod G'afforovich	
Прогнозирование ожидаемых экономических изменений с корреляционно-регрессионного анализа (в примере: "NAFIS TEX GROUP" МСН)	101
Уринов Адхамджан Акбарович	
Современные модели поведения промышленных предприятий в условиях привлечения инвестиций	106
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
Управление инвестициями в развитие человеческого капитала как фактор повышения конкурентоспособности промышленных	112
Тилляходжаев А.А.	
алгоритмы принятия решений в управлении технологическими процессами подземного выщелачивания	119
Исманова Клара Дуланбоевна	



Kvant o'rali yarimo'tkazgichlarda optik yutilish koeffitsientini foton energiyasiga bog'liqligi.....	127
Sayidov Nozimjon Abdunosirovich	
Malein kislota angidridini oksidlab oksiran olish.....	133
Muhiddinov Baxodir Faxriddinovich, Xamroyev Kamoliddin Shaxobiddinovich, Qiyomov Sharifjon Nizomovich, Xusanov S.Y.	
Tadbirkorlik subyektlarini sug'urtalashning mintaqaviy xususiyatlari	138
Shuxrat Jalolidinovich Mamadjanov	
Jin mashinasining paxta tozalashdagi unumdorligini tahlil qilish va modellashtirish.....	144
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularni eksport salohiyatini oshirish.....	151
Daniyarov Kuvatbay Daurxanovich	
O'zbekiston ipoteka bozorida "ESKROU" tizimini joriy qilinishi.....	156
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
Korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini ekonometrik tahlili qilish masalalari.....	161
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
Noaniqlik sharoitida moliyaviy operatsiyalar narxini baholashning nazariy asoslari.....	166
Muradov Rustamjon Sobitxonovich	
Elektr transport vositalarining paydo bo'lish evolyutsiyasi va batareyalarning kamchiliklarini hal qilinishi kerak bo'lgan muammolari.....	171
Moydinov Dilyorbek Abidjanovich, Zokirjonov Azizbek Zokirjon o'g'li	
Maishiy xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi.....	179
Israilov Rustam Ibragimovich	
Ishlab chiqarish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi va baliqchilik tarmog'iga xos xususiyatlari.....	185
Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich	
Tadbirkorlik faoliyati subyektlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash masalalari.....	189
Uzoqov Muhibillo Juraboevich	
Korporativ transformasiya sharoitida bank xizmatlarini takomillashtirishning ekonometrik tahlili.....	194
Baymuratova Madina Tursunboy qizi	
Iplarni turli muhitlarda namlikni o'zlashtirish ko'rsatkichlari.....	204
B.B.Mirzabaev, N.Yu.Sharibayev, B.T.Xolmurotov	
Un ishlab chiqarish korxonalarida donni sovuq konditsionerlash tizimining modellari va ularning tavsiflari.....	211
Akramova Gulhayo Abidovna, Yusupov Azamat Alijonovich	
Обоснование параметров ножа оборудования для резки плодоовощей.....	220
Худайбердиев Тохиржон Латифович	
Quritish usullarining zanjabil (zingiber officinale) ildizpoyasini kimyoviy tarkibiga ta'siri.....	226
Merganov Avazxon Turgunovich, Abdurasulov Abdurauf Xasanovich	
Sut bezi saraton kasalliklarini erta aniqlashda informativ belgilar majmuasini tanlash algoritmi	230
Nishanov Akhram Khasanovich, Mamajanov Rajmatilla Yakubjanovich, Xaidarov Sherali Islom o'g'li	
Vertical vibration analysis of conveyor with compound screw and belt bearing support.....	239
Marasulov Islombek Ravshanbek o'g'li	
Turkiston o'lkasidagi madrasalar holati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida.....	250
Lukashova Natalya Mixaylovna	



Kichik biznes korxonalari tomonidan eksport mahsulotlari ishlab chiqarish konsepsiyasi.....	256
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
Qishloq joylar resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholashga uslubiy yondashuvlar	262
Tursunpo'latov Farxodjon Xoshimjon o'g'li	
Migratsiya jarayonlari va uni tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari.....	269
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
Personnel policies and crisis management: modifying hr tactics during pandemics or economic downturns.....	276
Sarimsakov Bakhtiyor Rakhmonjanovich	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini hukumat tomonidan moliya-kredit mexanizmi orqali qo'llab-quvvatlashning zaruriyati.....	280
Ergashev Otamurod Tashtemirovich	
Tijorat banklari reytingini aniqlashda aktivlar va kapital rentabelligi ko'rsatkichlarining tahlili	287
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
Автоматизированная система эффективное управление перекрестками дорог для транспортных средств	292
Мамаджанов Рахматилла Якубджанович, Алиев Махмуд Муса оглы, Холбоев Алишер Бобохон оглы	
Роль железнодорожного транспорта в сфере туризма и развитие туризма в центральной азии	298
Мухамедова Ситора	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyatini transformasiyalashni takomillashtirish yo'llari.....	304
I.A. Yuldashev	
Tadbirkorlik subyektlarida innovatsion loyihalarni ekspertizadan o'tkazish mexanizmini takomillashtirish orqali innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish.....	310
Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o'g'li	
Tijorat banklari depozit operatsiyalarining bugungi kundagi holati hamda uni takomillashtirish yo'llari.....	317
Shamsiyev Nodir Muratovich	
Современное состояние демографического развития регионов Узбекистана	325
Цхай Лана Александровна	
Qurilish materiallar sanoatida klaster tizimidan foydalanishning xususiyatlari	335
Utarov Doniyorbek G'ayratbek o'g'li, Saidov Mash'al Samadovich	
Исследование состава, физико-химических и эксплуатационных свойств битумов.....	339
Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Абдуллаева Шохиста Шухратовна	
Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash	344
Yuldashev Fozil Turapovich	
Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari	350
Djumaniyazov Ikram Karimbayevich	
Umumta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish choralari	355
Ummatov Avaz Muydinovich	
The production potential of developing agriculture in mountain and foothill areas.....	360
Abdulkhaeva Gulshan Makhmudovna	
Globalashuv jarayonlarini chuqurlashuvi davrida xalqaro turizmni rivojlanishi.....	366
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	



Server kompyuterning dasturiy ta'minoti va undan foydalanish.....	372
Otaxanov Nurillo Abdumalikovich, Aliyev Qaxramon Botirjonovich, Sayidov Nozimjon Abdunosirovich	
Tijorat banklari tomonidan resurslarni shakllantirish o'ziga xos xususiyatlari.....	390
Ortiqov Uyg'un Davlatovich	
Biznes jarayonlari raqobatbardoshligini oshirishni modellashtirish usullari	400
Xamidov Doston Rustam o'g'li	
Kichik biznes subyektlarida tashkil etilgan baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarning aylanma mablag'lari tarkibi va ularning samaradorligini baholash	406
Vazirov Azamat Yoqubjanovich	
Sug'urta bozorini milliy iqtisodiyotga integratsiya qilishning metodologik asoslari.....	412
Tuxtarova Maftuna Yo'ldoshboy qizi	
Tijorat banklari faoliyati barqarorligini reyting tizimi asosida baholashning turli usullari va xorij tajribasi	417
N.Q.Xolov	
Ta'lim klasterlarini tashkil etish va rivojlantirishdagi muammolar.....	422
Qo'chqarov Toxir Fayzulla o'g'li, Rashidov Rahmatullo A'lojonovich	
Yangi g'o'za tizmalarining ho'jalik va sifat belgilari	430
Boltaboyev Xusniddin Abdig'anievich	
Methods for assessing financial-economic security of enterprises of the industrial cluster.....	434
Kholikova Rukhsora Sanjarovna	
Эконометрический подход определения влияния цифровизации экономики на развитие страны	443
Сапаев Д.Х.	
O'zbekistonda xalqaro standartlarning qo'llanilish tartib-qoidalari.....	448
Maxmonov Uktam Ashirovich, Ahmedova Sitara Asqar qizi	
Ishlab chiqarish korxonalarida kadrlar tayyorlash strategiyasini takomillashtirish	454
Adashev Azimjon O'rinboyevich, Mamatqulov Rustam Muxammadkarimovich	
Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda davlat grantining yo'nalishlari.....	460
Xusanov Otabek Nishonovich	
Tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etishning zamonaviy tamoyillari	467
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlarini samarali tashkil etish masalalari.....	472
Mamatov Bahromjon Shavkatovich	
Sanoatda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish.....	479
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalari	491
Shoydaliyev Umid Eshquvat o'g'li	
O'zbekiston tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini rivojlantirish mohiyati.....	498
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni yo'lga qo'yish xususiyatlari.....	503
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Sug'urta tashkilotlarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda andarrayting xizmatidan foydalanish.....	510
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich	
Soliq ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammolari.....	516
Abdurasulov Alisher Abdurasulovich	



Tijorat banklari depozit operatsiyalarini rivojlantirishning yevropa tajribasi.....	521
I.I.Jo'rayev	
O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish tendensiyalari	527
Ibodullaev Abror Axrorovich	
O'zbekiston pensiya tizimi islohotlarida xorijiy tajribani qo'llash	531
Zokirova Gavxar	
Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalangan holda mehmonxonalarda ovqatlantirish tizimini ekologik barqarorlik asosida rivojlantirish.....	537
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
Xalqaro tajribada turizm transport xizmatlari: O'zbekiston uchun darslar.....	542
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Turizmda sug'urta va xavfsizlik kafolatlari: xorijiy tajriba va milliy yondashuv.....	547
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Mintaqa xalq hunarmandchiligi texnologiyasini rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llanilishi	552
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
Korxonalarining moliyaviy barqarorligini boshqarish.....	556
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
O'zbekiston bank-moliya tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish tendensiyalari.....	563
Kalandarxonov Saidabraxon Olimxon o'g'li	
Hudud daromad salohiyatini baholash va rivojlantirishga metodologik yondashuvlar	571
Qobulov Xotamjon Abdukarimovich	
INNOVATSIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	579
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
ZAMONAVIY MOLIYAVIY DIAGNOSTIKADA MOLIYAVIY BARQARORLIK VA UNING XUSUSIYATLARI	583
Kurbonov Xayrilla	
TURAR-JOY KO'CHMAS MULKI MINTAQAVIY IQTISODIYOT TADQIQOTLARINING ASOSIY KATEGORIYASI SIFATIDA	590
Xatamkulov Bekzod Iskandarbek o'g'li	

TURAR-JOY KO'CHMAS MULKI MINTAQAVIY IQTISODIYOT TADQIQOTLARINING ASOSIY KATEGORIYASI SIFATIDA

Xatamkulov Bekzod Iskandarbek o'g'li

Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti

b.nurmuhammad90@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada turar-joy ko'chmas mulki mintaqaviy iqtisodiyot tadqiqotlarining asosiy kategoriyasi sifatida nazariy jihatdan asoslanadi. Turar-joy fondi nafaqat iste'mol tovari, balki hududiy kapitalning alohida shakli, investitsion resurs, fiskal baza va ijtimoiy infratuzilma omili sifatida talqin etiladi. Maqolada turar-joy ko'chmas mulkning mintaqaviy iqtisodiy o'sish, bandlik, investitsiya faolligi va hududiy nomutanosiblikka ta'sir mexanizmlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, uning ko'p funktsiyali tabiati — investitsion, iste'mol, fazoviy va institutsional funktsiyalari ajratib ko'rsatiladi. Turar-joy qurilishi va ko'chmas mulk bozori mintaqaviy rivojlanishning strukturaviy indikator sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: turar-joy ko'chmas mulki, mintaqaviy iqtisodiyot, hududiy rivojlanish, kapital akkumulyatsiyasi, investitsiya faolligi, uy-joy bozori, institutsional muhit, fiskal baza, fazoviy differentsiya, iqtisodiy o'sish, bandlik, urbanizatsiya, hududiy nomutanosiblik.

Abstract: This article theoretically substantiates residential real estate as a key category of regional economic research. The housing stock is interpreted not only as a consumer good, but also as a special form of regional capital, an investment resource, a fiscal base and a factor of social infrastructure. The article analyzes the mechanisms of the impact of residential real estate on regional economic growth, employment, investment activity and territorial imbalance based on a systematic approach. It also highlights its multifunctional nature - investment, consumption, spatial and institutional functions. The housing construction and real estate market is assessed as a structural indicator of regional development.

Keywords: residential real estate, regional economy, regional development, capital accumulation, investment activity, housing market, institutional environment, fiscal base, spatial differentiation, economic growth, employment, urbanization, territorial imbalance.

Аннотация: В данной статье теоретически обосновывается роль жилой недвижимости как ключевой категории региональных экономических исследований. Жилищный фонд рассматривается не только как потребительский товар, но и как особая форма регионального капитала, инвестиционный ресурс, фискальная база и фактор социальной инфраструктуры. В статье на системном подходе анализируются механизмы влияния жилой недвижимости на региональный экономический рост, занятость, инвестиционную активность и территориальный дисбаланс. Также подчеркивается ее многофункциональный характер — инвестиционная, потребительская, пространственная и институциональная функции. Жилищное строительство и рынок недвижимости оцениваются как структурный индикатор регионального развития.

Ключевые слова: жилая недвижимость, региональная экономика, региональное развитие, накопление капитала, инвестиционная активность, рынок жилья, институциональная среда, фискальная база, пространственная дифференциация, экономический рост, занятость, урбанизация, территориальный дисбаланс.

KIRISH

Turar-joy ko'chmas mulki zamonaviy iqtisodiy tizimda oddiy iste'mol obyekti emas, balki hududiy kapital shakllanishi, investitsiya jarayonlari va ijtimoiy barqarorlikni belgilovchi ko'p funktsiyali iqtisodiy kategoriya sifatida



namoyon bo'lmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, uy-joy sektori rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini shakllantirib, qurilish, moliya, materiallar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari orqali keng multiplikativ ta'sir hosil qiladi [1]. Shu jihatdan turar-joy fondining kengayishi nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini rag'batlantiradi, balki hududiy bandlik, soliq bazasi va kapital akkumulyatsiyasini kuchaytiradi.

BMTning UN-Habitat hisobotlarida uy-joy ta'minlanganligi darajasi urbanizatsiya jarayonlarining sifat ko'rsatkichi sifatida baholanadi hamda hududiy tengsizlikni kamaytirishda muhim vosita ekanligi qayd etiladi [2]. Aholi sonining o'sishi va ichki migratsiya oqimlari fonida turar-joy infratuzilmasining yetishmovchiligi hududiy nomutanosiblikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli turar-joy ko'chmas mulkini mintaqaviy rivojlanishning strukturaviy indikatori sifatida talqin qilish ilmiy zaruratga aylanmoqda.

OECD tahlillarida uy-joy bozori dinamikasi, ipoteka kreditlari kengayishi va yer resurslaridan foydalanish samaradorligi hududiy iqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatilgan [3]. Ayniqsa, ko'chmas mulk narxlarining keskin o'zgarishi kapital konsentratsiyasini ma'lum hududlarda to'plash yoki aksincha, investitsiya oqimlarini cheklash orqali fazoviy differensiyani kuchaytiradi. Demak, turar-joy ko'chmas mulki iqtisodiy sikllar va hududiy o'sish modellari bilan uzviy bog'liq bo'lgan tizimli kategoriya hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida ham turar-joy qurilishi va uy-joy siyosati iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Hududiy rivojlanish va innovatsion infratuzilmani kengaytirish vazifalari belgilangan bo'lib, bu turar-joy fondining kengayishi va sifat jihatdan takomillashuvini taqozo etadi [4]. So'nggi yillarda ipoteka mexanizmlarini liberallashtirish, qurilish sohasini raqamlashtirish va yer ajratish jarayonlarini shaffolashtirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi [5]. 2024-yil yakunlariga ko'ra, uy-joy qurilishi hajmining oshishi va yangi massivlarning shakllanishi hududiy iqtisodiy faollikka sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Biroq mavjud tadqiqotlarda turar-joy ko'chmas mulki ko'pincha mikroiqtisodiy yoki moliyaviy aktiv sifatida o'rganilib, uning mintaqaviy iqtisodiyotdagi strukturaviy roli yetarlicha nazariy asoslanmagan. Bu esa mazkur kategoriyaning kapital akkumulyatsiyasi, hududiy differensiya va institutsional muhit bilan integratsiyalashgan holda o'rganishni talab etadi. Turar-joy ko'chmas mulki ishlab chiqarish omili, investitsion aktiv va ijtimoiy infratuzilma birikmasi sifatida mintaqaviy iqtisodiy tizimda ko'p qirrali funksiyalarni bajaradi.

Shunday qilib, mazkur maqola turar-joy ko'chmas mulkini mintaqaviy iqtisodiyot tadqiqotlarining asosiy kategoriyasi sifatida konseptual rekonstruksiya qilish, uning iqtisodiy, institutsional va fazoviy funksiyalarini tizimli asoslash hamda hududiy rivojlanish mexanizmlaridagi rolini aniqlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turar-joy ko'chmas mulkini mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy kategoriyasi sifatida talqin qilish nazariy jihatdan urban iqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot, makroiqtisodiy sikl nazariyasi hamda fazoviy ekonometrika kesishmasida shakllangan. Klassik joylashuv nazariyasida yer qiymati va transport xarajatlari iqtisodiy faoliyatning hududiy taqsimlanishini belgilovchi asosiy determinantlar sifatida izohlangan. Alonso tomonidan ishlab chiqilgan yer rentasi modeli shahar markaziga yaqin hududlarda yer va uy-joy narxining yuqoriligi orqali fazoviy differensiyani tushuntiradi [6]. Mazkur yondashuv turar-joy ko'chmas mulkning hududiy joylashuv bilan uzviy bog'liqligini asoslaydi, biroq uni mintaqaviy iqtisodiyotning mustaqil va ko'p funksiyali kategoriyasi sifatida to'liq ochib bermaydi.

Muth tomonidan ishlab chiqilgan urban model uy-joyini uzoq muddatli iste'mol tovari sifatida talqin qilib, talabning daromadga elastikligini va taklifning qurilish xarajatlari hamda yer resurslariga bog'liqligini ko'rsatadi [7]. Ushbu yondashuv bozor mexanizmini aniq izohlasa-da, hududiy tafovutlarning institutsional va infratuzilmaviy determinantlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Natijada uy-joy bozori ichki muvozanat modeli doirasida qoladi va mintaqaviy kapital shakllanishi bilan bog'lanmaydi.

Makroiqtisodiy yo'nalishda Leamer uy-joy qurilishini iqtisodiy sikllarning yetakchi indikatori sifatida talqin qilib, qurilish sektoridagi o'zgarishlar yalpi iqtisodiy faollikning oldindan signali ekanini asoslaydi [8]. Bu yondashuv turar-joy ko'chmas mulkini makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish jarayonining muhim komponentiga aylantiradi. Shunga qaramay, mazkur konsepsiya hududlar kesimida siklik reaksiyalarning farqlanishini yetarli darajada izohlamaydi.

Aglomeratsiya nazariyasi doirasida Glaeser va Gottlieb uy-joy narxlari, hududiy mahsuldorlik va kapital konsentratsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi [9]. Ularning fikricha, yuqori mahsuldorlikka ega hududlarda uy-joy narxining o'sishi iqtisodiy salohiyatning aksidir. Biroq bu jarayon markaz-periferiya tafovutini chuqurlashtirishi mumkin. Shu jihatdan, turar-joy ko'chmas mulki bir vaqtning o'zida ham o'sish omili, ham hududiy nomutanosiblik manbai sifatida namoyon bo'ladi.

Institutsional iqtisodiyot vakili North iqtisodiy samaradorlik va investitsiya faolligining institutsional sifatga bog'liqligini asoslab bergan [10]. Uy-joy qurilishida yer ajratish, mulk huquqi himoyasi, ruxsat berish jarayonlari va shartnoma ijrosi darajasi investitsiya risklarini belgilaydi. Demak, turar-joy ko'chmas mulki bozor mexanizmidan tashqari tranzaksiya xarajatlari va institutsional cheklovlar orqali ham shakllanadi.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida uy-joy sektori iqtisodiy inklyuzivlik va ijtimoiy barqarorlik omili sifatida talqin etiladi. Jahon banki uy-joy infratuzilmasi kengayishi sektorlararo multiplikativ ta'sir yaratishini qayd etadi [11]. OECD esa uy-joy siyosati mehnat bozori harakatchanligi, narx barqarorligi va hududiy tenglikka bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [12]. Bu yondashuvlar turar-joy ko'chmas mulkini davlat siyosati va hududiy boshqaruv mexanizmlaridan ajratib bo'lmashligini ko'rsatadi.

Fazoviy ekonometrika yo'nalishida Anselin tomonidan ishlab chiqilgan modellar hududlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi [13]. Uy-joy narxlar va qurilish hajmlarida qo'shni hududlar ta'siri mavjud bo'lib, bu fazoviy avtokorrelyatsiyani hisobga olmasdan aniqlanmaydi. Capozza va Helsley uy-joy qiymatining kapitalizatsiya mexanizmini ochib, infratuzilma va davlat siyosati kutishlarining narxlarga singdirilishini ko'rsatgan [14]. Bu esa turar-joy ko'chmas mulkini mintaqaviy rivojlanish siyosatining kapitalizatsiyalashgan ko'rsatkichi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Mahalliy tadqiqotlarda uy-joy qurilishi ko'proq investitsiya faolligi va davlat dasturlari samaradorligi doirasida o'rganilgan [15]. Biroq turar-joy ko'chmas mulkini mintaqaviy kapital akkumulyatsiyasi, fazoviy differensiya va institutsional sifat bilan integratsiyalashgan kategoriya sifatida konseptual asoslash yetarli darajada rivojlanmagan.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlarda turar-joy ko'chmas mulki urban iqtisodiyot ob'ekti, makroiqtisodiy indikator, investitsion aktiv va ijtimoiy infratuzilma omili sifatida talqin etilgan. Biroq uni mintaqaviy iqtisodiyotning ko'p funksiyali, strukturaviy va institutsional jihatdan integratsiyalashgan kategoriyasi sifatida tizimli model doirasida o'rganish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola aynan shu nazariy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, turar-joy ko'chmas mulkini hududiy kapital shakllanishi va fazoviy rivojlanish mexanizmlarining markaziy elementi sifatida ilmiy rekonstruksiya qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada turar-joy ko'chmas mulkini mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy kategoriyasi sifatida tadqiq etish kompleks, ko'p bosqichli va integratsiyalashgan metodologik yondashuv asosida amalga oshiriladi. Tadqiqotning nazariy-metodologik poydevorini institutsional iqtisodiyot, urban iqtisodiyot, aglomeratsiya nazariyasi hamda fazoviy iqtisodiyot konsepsiyalari tashkil etadi. Metodologik jihatdan, birinchi bosqichda turar-joy ko'chmas mulkning iqtisodiy mohiyati, funksional xususiyatlari va mintaqaviy iqtisodiy tizimdagi o'rni kontseptual tahlil usuli orqali aniqlanadi. Bu jarayonda abstrakt-logik tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, turar-joy ko'chmas mulkning iste'mol, investitsion, fiskal va fazoviy funksiyalari ajratib olinadi.

Empirik-metodologik jihatdan tadqiqot fazoviy va iqtisodiy tahlil elementlarini birlashtiradi. Turar-joy ko'chmas mulkning hududiy differensiyasini aniqlash maqsadida nisbiy ko'rsatkichlar tizimi (aholi jon boshiga uy-joy maydoni, qurilish hajmi, narx indeksi) hamda dispersiya va variatsiya koeffitsiyenti kabi statistik usullar qo'llaniladi. Mintaqalar kesimidagi tafovutlarni chuqurroq aniqlash uchun Gini va Theil indekslari kabi nomutanosiblik ko'rsatkichlaridan foydalanish nazarda tutiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda turar-joy ko'chmas mulki qurilish sektorining rivojlanish jarayonlari Namangan viloyati va uning tumanlari misolida bosqichma-bosqich yoritiladi. Mazkur bo'lim tarkibida keltirilgan jadvallar orqali qurilish hajmi dinamikasi, hududlararo nomutanosiblik, turar-joy bozori asosiy ko'rsatkichlari hamda qurilish rivojlanishining integral bahosi tizimli ravishda aks ettiriladi. Ushbu jadvallar sektorning makon va vaqt kesimidagi o'zgarishlarini umimlashtirish, hududiy tafovutlarni ko'rsatish va turar-joy bozorining iqtisodiy mazmunini ochib berish uchun xizmat qiladi. Natijada mazkur bo'limda shakllantirilgan jadval bazasi qurilish sektorini kompleks empirik baholashga imkon beruvchi analitik asos vazifasini bajaradi.

Bo'limda foydalanilgan ma'lumotlar Namangan viloyati statistika boshqarmasi hamda hududiy iqtisodiyot va moliya boshqarmasi materiallari asosida shakllantirilgan bo'lib, ular 2016–2023-yillar oralig'idagi asosiy ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Ma'lumotlar tarkibiga qurilish hajmi, hududiy ulush, uy-joy ta'minoti, 1000 aholiga yangi uy-joy ko'rsatkichlari, o'sish sur'atlari va hududlararo nomutanosiblik indikatorlari kiradi. Shu jihatdan, tahlil va natijalar bo'limi turar-joy ko'chmas mulki qurilish sektorining nafaqat iqtisodiy o'sishdagi o'rnini, balki hududiy rivojlanish, kapital konsentratsiyasi va ijtimoiy ta'minot bilan bog'liq jihatlarini ham yoritishga xizmat qiluvchi empirik axborot maydonini shakllantiradi (1-jadval).



1-jadval. Namangan viloyatida 2016–2023 yillarda qurilish sanoati ishlab chiqarish hajmining dinamikasi


	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Namangan sh.	246,0	292,4	520,4	873,1	1 411,4	1 529,8	2 050,6	2 784,6
Mingbuloq	49,2	46,1	93,0	158,6	134,7	260,9	288,8	412,4
Kosonsoy	102,4	122,0	196,8	359,8	386,4	470,7	581,1	597,9
Namangan	132,1	175,5	197,1	270,7	372,6	442,1	530,3	502,3
Norin	68,5	65,4	93,3	142,7	224,9	216,9	373,7	316,1
Pop	103,8	106,1	181,3	252,8	364,4	385,3	584,8	396,1
To'raqo'rg'on	97,8	134,5	189,3	229,0	243,7	295,9	448,0	361,9
Uychi	125,8	139,0	221,1	364,7	485,9	640,8	952,4	994,4
Uchqo'rg'on	69,1	113,6	176,7	205,0	274,3	278,5	514,3	469,6
Chortoq	74,9	78,6	138,3	220,6	311,5	431,4	564,5	610,6
Chust	86,5	103,2	137,3	215,6	249,8	315,8	425,2	458,2
Yangiqo'rg'on	133,9	98,8	113,1	178,4	218,8	288,5	353,2	399,5
Taqsimlanmagan							2 897,9	3 429,1

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi "Hududiy qurilish faoliyati tahlili ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi"

2016–2023-yillarda Namangan viloyatida qurilish ishlari hajmi 1 289,9 mlrd so'mdan 11 732,9 mlrd so'mga oshib, nominal ifodada 9,1 barobar ko'paygan. Ayniqsa 2018–2019 yillarda keskin o'sish kuzatilib, hajm 2 257,6 mlrd so'mdan 3 471,0 mlrd so'mga yetgan, ya'ni bir yilda 53,8 foiz o'sish qayd etilgan. 2022-yilda esa qurilish hajmi 10 564,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan qariyb 90,1 foizga oshgan, bu esa yirik infratuzilma va turar-joy loyihalarining amalga oshirilganini anglatadi. 2023-yilda o'sish sur'ati nisbatan barqarorlashib, 11,1 foizni tashkil etdi (11 732,9 mlrd so'm). Bu dinamika qurilish sektorining viloyat yalpi hududiy mahsulotida strategik o'rin egallayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, qurilish hajmining tez sur'atlarda kengayishi turar-joy ko'chmas mulkini hududiy kapital akkumulyatsiyasining moddiy ko'rsatkichi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Hududlar kesimida qurilish kapitalining sezilarli darajada markazlashuvi kuzatiladi. 2023-yilda Namangan shahri 2 784,6 mlrd so'm bilan viloyat umumiy hajmining 23,7 foizini shakllantirgan. Uychi tumani (994,4 mlrd so'm), Chortoq tumani (610,6 mlrd so'm) va Kosonsoy tumani (597,9 mlrd so'm) yuqori o'sish ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. Masalan, Uychi tumanida 2016-yildagi 125,8 mlrd so'mlik hajm 2023-yilda 994,4 mlrd so'mga yetib, 7,9 barobar oshgan; Chortoq tumanida esa shu davrda 74,9 mlrd so'mdan 610,6 mlrd so'mga yetib, 8,1 barobar o'sish kuzatilgan. Aksincha, ayrim hududlarda o'sish notekis: Norin tumanida 2022-yilda 373,7 mlrd so'm bo'lgan hajm 2023-yilda 316,1 mlrd so'mga kamaygan (–15,4%), Pop tumanida esa 584,8 mlrd so'mdan 396,1 mlrd so'mga tushib, 32,3 foizlik pasayish qayd etilgan (2-jadval).

2-jadval. Namangan viloyatida qurilish hajmi bo'yicha hududlararo nomutanosiblik ko'rsatkichlari



Manba: Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasining Qurilish faoliyatining tumanlar kesimidagi monitoringi asosida muallif ishlanmasi

2016–2023-yillarda qurilish hajmining hududlar kesimidagi taqsimoti Gini indeksining 0,226 dan 0,357 gacha va Theil indeksining 0,090 dan 0,290 gacha oshgani orqali nomutanosiblikning kuchayganini ko'rsatadi, bunda markazlashuv asosan yirik hududlar hissi bilan izohlanadi. Xususan, 2023-yilda Namangan shahri 2 784,6 mlrd so'm bilan eng yuqori ulushni egallagan bo'lsa, Uychi tumani 994,4 mlrd so'm, Chortoq tumani 610,6 mlrd so'm va Kosonsoy tumani 597,9 mlrd so'm bilan yuqori guruhni shakllantiradi, aksincha Mingbuloq 412,4 mlrd so'm, Norin 316,1 mlrd so'm va Yangiqo'rg'on 399,5 mlrd so'm kabi hududlar nisbatan past darajada qolgan. 2016 yil bilan solishtirganda Uychi 125,8 dan 994,4 mlrd so'mga, Chortoq 74,9 dan 610,6 mlrd so'mga, Namangan shahri esa 246,0 dan 2 784,6 mlrd so'mga oshib, kapitalning yuqori darajada konsentratsiyalashganini ko'rsatadi, bu esa ayniqsa 2020 yilda Gini 0,331 va Theil 0,234 darajalariga keskin sakrash orqali namoyon bo'lgan.

Mazkur natijalar qurilish sektorida hududiy rivojlanishning asimmetrik xarakterga ega ekanini, ya'ni investitsiya oqimlari va iqtisodiy faollik yuqori salohiyatli markaziy hududlarda jamlanib borayotganini tasdiqlaydi. Gini va Theil indekslarining bir vaqtning o'zida o'sishi hududlar o'rtasidagi farqlar nafaqat miqdoriy, balki strukturaviy jihatdan ham chuqurlashayotganini bildiradi, bu esa aglomeratsiya effektlari, infratuzilma ustunligi va institutsional muhit farqlari bilan izohlanadi. Natijada turar-joy qurilishi mintaqaviy iqtisodiy tizimda nafaqat o'sish drayveri, balki hududiy nomutanosiblikni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda (3-jadval).

3-jadval. Hududlar kesimida turar-joy bozori asosiy ko'rsatkichlari

Hudud	Qurilish hajmi (mlrd so'm)	Aholi jon boshiga uy-joy (m ²)	1000 aholiga yangi uy-joy (m ²)	O'sish koeffitsiyenti (2016–2023)
Namangan sh.	2 784,6	17,8	520	11,32
Mingbuloq	412,4	15,2	310	8,38
Kosonsoy	597,9	16,1	355	5,84
Namangan	502,3	16,5	340	3,8
Norin	316,1	14,9	295	4,61
Pop	396,1	15,8	320	3,82
To'raqo'rg'on	361,9	15,6	305	3,7
Uychi	994,4	16,9	410	7,91
Uchqo'rg'on	469,6	15,7	330	6,79
Chortoq	610,6	16,3	360	8,15
Chust	458,2	15,9	335	5,3
Yangiqo'rg'on	399,5	15,4	315	2,98

Manba: Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasining Qurilish faoliyatining tumanlar kesimidagi monitoringi asosida muallif ishlanmasi

Hududlar kesimida qurilish hajmi va o'sish koeffitsiyentlari turar-joy bozorining keskin differensiyalashganini yaqqol ko'rsatadi. 2023-yilda Namangan shahri 2 784,6 mlrd so'm hajm va 11,32 koeffitsiyent bilan mutlaq yetakchi bo'lib, bu 2016 yilga nisbatan 11 martadan ortiq o'sishni anglatadi. Uychi tumani 994,4 mlrd so'm va 7,91 koeffitsiyent, Chortoq tumani 610,6 mlrd so'm va 8,15 koeffitsiyent bilan yuqori o'sish guruhini tashkil etadi, bu hududlarda qurilish faolligi intensivlashganini bildiradi. Kosonsoy 597,9 mlrd so'm va 5,84, Uchqo'rg'on 469,6 mlrd so'm va 6,79 koeffitsiyent bilan o'rta-yuqori segmentda joylashadi, aksincha Namangan tumani 502,3 mlrd so'm va 3,80, Pop 396,1 mlrd so'm va 3,82 hamda To'raqo'rg'on 361,9 mlrd so'm va 3,70 koeffitsiyent bilan nisbatan past dinamikani namoyon etadi. Eng past o'sish Yangiqo'rg'on tumanida kuzatilib, 399,5 mlrd so'm hajm bilan 2,98 koeffitsiyent qayd etilgan.

Mazkur tafovutlar turar-joy qurilishi jarayonining hududiy iqtisodiy tizimda selektiv tarzda rivojlanayotganini ko'rsatadi, ya'ni investitsiya oqimlari infratuzilma va bozor salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda konsentratsiyalanmoqda. Yuqori koeffitsiyentga ega hududlar aglomeratsiya effektlari, ichki talabning yuqoriligi va institutsional qulayliklar orqali qurilish kapitalini jalb qilmoqda, natijada ular iqtisodiy o'sishning "yadro hududlari"ga aylanmoqda. Shunday qilib, turar-joy ko'chmas mulki nafaqat iqtisodiy faollikning indikator, balki kapitalning fazoviy qayta taqsimlanishini belgilovchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi (4-jadval).



4-jadval. Hududlar kesimida qurilish rivojlanishi va nomutanosiblikning integral bahosi

Hudud	Qurilish hajmi (mlrd so'm)	O'sish koeffitsiyenti	Hududiy ulushi (%)	Rivojlanish indeksi (n)
Namangan sh.	2 784,6	11,32	23,7	1,00
Uychi	994,4	7,91	8,5	0,54
Chortoq	610,6	8,15	5,2	0,41
Kosonsoy	597,9	5,84	5,1	0,34
Uchqo'rg'on	469,6	6,79	4,0	0,33
Chust	458,2	5,30	3,9	0,30
Namangan	502,3	3,80	4,3	0,28
Pop	396,1	3,82	3,4	0,23
Yangiqo'rg'on	399,5	2,98	3,4	0,20
To'raqo'rg'on	361,9	3,70	3,1	0,21
Mingbuloq	412,4	8,38	3,5	0,29
Norin	316,1	4,61	2,7	0,19

Manba: Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasining Qurilish faoliyatining tumanlar kesimidagi monitoringi asosida muallif ishlanmasi

2023-yil ma'lumotlari asosida shakllantirilgan integral baholash natijalari hududlar kesimida qurilish kapitalining yuqori darajada konsentratsiyalashganini ko'rsatadi. Namangan shahri 2 784,6 mlrd so'm hajm va 23,7 foiz ulush bilan mutlaq yetakchi bo'lib, rivojlanish indeksi 1,00 ga teng, bu uning tizimdagi dominant o'rnini bildiradi. Uychi tumani 994,4 mlrd so'm va 8,5 foiz ulush bilan 0,54 indeksga ega bo'lib, ikkinchi darajali markaz sifatida ajralib turadi, Chortoq 610,6 mlrd so'm va 0,41 indeks, Kosonsoy 597,9 mlrd so'm va 0,34 indeks bilan o'rta-yuqori segmentni shakllantiradi. Shu bilan birga, Norin 316,1 mlrd so'm va 0,19 indeks, Yangiqo'rg'on 399,5 mlrd so'm va 0,20 indeks hamda To'raqo'rg'on 361,9 mlrd so'm va 0,21 indeks bilan past rivojlangan hududlar guruhiga kiradi. Mingbuloq tumanida o'sish koeffitsiyenti 8,38 bo'lishiga qaramay, umumiy hajm va ulushning pastligi sababli uning integral indeksi 0,29 darajada shakllangan.

Mazkur natijalar qurilish sektorida hududiy rivojlanishning polaryatsiyalashgan model asosida shakllanayotganini anglatadi, ya'ni yuqori iqtisodiy va infratuzilmaviy salohiyatga ega markaziy hududlar investitsiya oqimlarini jalb qilib, o'z ustunligini mustahkamlab bormoqda. Integral indeksning keskin differensiyalashuvi turar-joy qurilishining faqat iqtisodiy o'sish emas, balki hududiy nomutanosiblikni chuqurlashtiruvchi mexanizm sifatida ishlayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, yuqori o'sish koeffitsiyentiga ega, biroq past ulushli hududlar rivojlanishning barqaror emasligini bildiradi, bu esa investitsiya siyosatining hududiy balanslashmaganligini aks ettiradi. Natijada turar-joy ko'chmas mulki mintaqaviy iqtisodiyotda kapitalning fazoviy qayta taqsimlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari turar-joy ko'chmas mulkining mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'zni ko'p funksiyali va tizimli xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. 2016–2023 yillarda Namangan viloyatida qurilish hajmining 1 289,9 mlrd so'mdan 11 732,9 mlrd so'mga oshishi, ya'ni 9,1 barobar ko'payishi ushbu sektorning hududiy kapital akkumulyatsiyasidagi hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2023 yilda Namangan shahri 2 784,6 mlrd so'm hajm bilan umumiy qurilishning 23,7 foizini shakllantirgani va Uychi tumani 994,4 mlrd so'm darajaga yetgani qurilish faoliyatining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganini anglatadi. Gini indeksining 0,226 dan 0,357 gacha, Theil indeksining 0,090 dan 0,290 gacha oshishi esa turar-joy qurilishi jarayonida hududiy nomutanosiblikning kuchayib borayotganini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Hududlar kesimida o'sish koeffitsiyentlarining keskin farqlanishi ham kapitalning selektiv konsentratsiyasini ko'rsatadi. Xususan, Namangan shahri 11,32, Chortoq tumani 8,15 va Uychi tumani 7,91 koeffitsiyent bilan yuqori dinamikani namoyon etgan bo'lsa, Yangiqo'rg'on tumanida 2,98 va To'raqo'rg'on tumanida 3,70 koeffitsiyent qayd etilgan. Integral rivojlanish indeksining 1,00 dan 0,19 gacha differensiyalashuvi qurilish sektorida polaryatsiyalashgan rivojlanish modelining shakllanganini bildiradi. Bu jarayon yuqori infratuzilma va institutsional ustunlikka ega hududlarda investitsiya oqimlarining jamlanishi bilan izohlanadi, natijada markaz-periferiya tafovuti chuqurlashadi.

Shuningdek, 2020–2023 yillarda Gini indeksining 0,331–0,357 oralig'ida barqarorlashuvi va Theil indeksining 0,234 dan 0,290 gacha o'sishi qurilish sektorida ichki strukturaviy tafovutlarning chuqurlashganini ko'rsatadi. Bu holat yuqori ulushga ega hududlarda kapitalning tezroq to'planishi va past rivojlangan hududlarda investitsiya yetishmovchiligi bilan bog'liq. Natijada turar-joy ko'chmas mulki nafaqat iqtisodiy o'sish drayveri, balki hududiy nomutanosiblikni shakllantiruvchi va kuchaytiruvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchidan, turar-joy ko'chmas mulkini mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy kategoriyasi sifatida operatsionlashtirish zarur, ya'ni uni qurilish hajmi, aholi jon boshiga uy-joy maydoni, uy-joy narxlari va ipoteka hajmi kabi integratsiyalashgan indikatorlar tizimi orqali baholash taklif etiladi. Bu yondashuv hududiy rivojlanish darajasini kompleks aniqlash va iqtisodiy siyosatni maqsadli shakllantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, hududiy nomutanosiblikni kamaytirish maqsadida differensial investitsiya siyosatini joriy etish lozim. Xususan, Gini indeksi 0,30 dan yuqori bo'lgan sharoitlarda past rivojlangan hududlar uchun davlat tomonidan subsidiya qilinadigan ipoteka stavkalari, soliqliq imtiyozlari va infratuzilma loyihalarini ustuvor moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish zarur. Bu orqali kapital oqimlarini periferik hududlarga yo'naltirish mumkin bo'ladi.

Uchinchidan, qurilish sektorida fazoviy rejalashtirish va iqtisodiy boshqaruvni takomillashtirish talab etiladi. Bunda hududlararo spillover effektlarini hisobga oluvchi fazoviy ekonometrik yondashuvlar asosida investitsiya resurslarini taqsimlash, yirik markazlarda ortiqcha konsentratsiyani cheklash va ikkilamchi rivojlanish markazlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, turar-joy bozorida institutsional muhitni yaxshilash orqali investitsiya samaradorligini oshirish zarur. Yer ajratish, qurilishga ruxsat berish va mulk huquqini himoya qilish tizimlarini soddalashtirish tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va hududlar bo'yicha investitsiya jozibadorligini tenglashtirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, uy-joy qurilishi va ko'chmas mulk bozori bo'yicha hududiy monitoring tizimini joriy etish taklif etiladi. Bu tizim orqali real vaqt rejimida qurilish hajmi, narxlar dinamikasi va investitsiya oqimlarini kuzatish imkoniyati yaratiladi hamda iqtisodiy siyosatni tezkor moslashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan manbalar

1. World Bank. (2023). Housing and Economic Development Report. Washington, DC.
2. UN-Habitat. (2022). World Cities Report: Envisaging the Future of Cities. United Nations.
3. OECD. (2023). Housing Policy and Regional Development Outlook. Paris.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-avgustdagi "Ma'muriy islohotlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-51-son Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi "2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-51-son Farmoni
6. Alonso, W. (1964). Location and Land Use: Toward a General Theory of Land Rent. Harvard University Press.
7. Muth, R. F. (1969). Cities and Housing: The Spatial Pattern of Urban Residential Land Use. University of Chicago Press.
8. Leamer, E. E. (2007). Housing is the business cycle. Proceedings - Economic Policy Symposium - Jackson Hole, Federal Reserve Bank of Kansas City, 149–233.
9. Glaeser, E. L., & Gottlieb, J. D. (2009). The wealth of cities: Agglomeration economies and spatial equilibrium in the United States. Journal of Economic Literature, 47(4), 983–1028.
10. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.
11. World Bank. (2017). Housing: Unleashing the Potential of the Housing Sector for Economic Growth. World Bank Publications.
12. OECD. (2021). Brick by Brick: Building Better Housing Policies. OECD Publishing.
13. Anselin, L. (1988). Spatial Econometrics: Methods and Models. Kluwer Academic Publishers.
14. Capozza, D. R., & Helsley, R. W. (1989). The fundamentals of land prices and urban growth. Journal of Urban Economics, 26(3), 295–306.
15. Tursunov, B. O. (2020). Hududiy rivojlanishda investitsiya faolligining iqtisodiy samaradorligini baholash. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4, 45–56.

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

